

5. <https://www.autostrada.uz/svoj-ogorod/>
6. <https://avtobor.uz/ru/blog/export>
7. <https://uz.sputniknews.ru/economy/20190530/11643448/GM-> Uzbekistan-
[vozobnovila-eksport-avtomobiley-v-Azerbaydzhan.html](https://uz.sputniknews.ru/economy/20190530/11643448/GM-vozobnovila-eksport-avtomobiley-v-Azerbaydzhan.html)
8. <https://www.spot.uz/ru/2019/06/10/export/>

Qodirov Obidjon Olim o'gli,
“Iqtisodiyot” fakulteti, 2– bosqich,
MEKP– 01 guruhi magistranti

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING “REKLAMA TO‘G‘RISIDA”GI QONUNI ASOSIY XUSUSIYATLARI

Annotatsiya: Tezida O‘zbekiston Respublikasining reklama qonuni to‘g‘risida. Qonuning asosiy xususiyatlari, mazmun mohiyati. Reklama tayyorlash, joylashtirish va tarqatish sohasidagi munosabatlarini tartibga solish yo‘nalishlari ochib berilgan.

Kalit so‘zalar: Reklama xizmatlari va turlari, reklamani qo‘llanilish usullari, ishontiruvchi reklama, eslatuvchi reklama, nomaqbul reklama, Rag‘batlantiruvchi aktsiya, Tavakkalchilikka asoslangan reklama.

Reklama tovarlarning sifati, ularni sotib olishdan ko‘riladigan naf haqidagi axborot; bevosita yoki bilvosita foyda (daromad) olish maqsadida yuridik va jismoniy shaxslar yoki mahsulot to‘g‘risida tarqatiladigan maxsus axborot. Reklama marketingni tarkibiy qismi hisoblanib, talab va iste‘molchilar didining shakllanishiga ta‘sir ko‘rsatadi.

Reklama bir necha vazifani bajaradi: 1) tovarlar va xizmatlar iste‘molchilarini xabardor qilish, ma‘lumot berish vazifasi – reklama e‘lonlarida tovar va xizmatlarning sifati, ishonchliligi, ularni qo‘llash sohalari, ishlab chiqaruvchilari va sotib olish yo‘llari haqida ma‘lumot beriladi; 2) ishontiruvchi reklama – mavjud tovarga iste‘molchi va haridorlarning moyilligini oshirishga xizmat qiladi; 3) eslatuvchi reklama – mavjud, ammo bir qadar unutilgan talabni, haridorlarning o‘zlari uchun ma‘lum bo‘lgan tovarlarga munosabatni kengaytirishda muhim o‘rinda turadi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida Reklama tadbirkorlikning alohida bir tarmog‘iga aylanib kelmoqda reklama maxsus qoidalar va qonunlarga muvofiq tashkil etiladi.

Qonuniylik, aniqlilik, ishonchlilik, reklamadan foydalanuvchiga zarar, shuningdek, ma‘naviy zarar yetkazmaydigan shakllar va vositalardan foydalanish Reklamaga doir asosiy talablardir.

Qonunning amal qilish sohalari va natijalari. (O‘RQ– 776– son)

Qonunning amal qilishi reklama tayyorlangan joydan qat‘iy nazar, agar maskur reklama O‘zbekiston Respublikasi hududida foydalanish va tarqatishga qaratilgan bo‘lsa, Reklamani aylanishi sohasidagi barcha munosabatlarga nisbatan tatbiq etiladi.

Qonun tatbiq etilmaydigan sohalar aniq belgilab berilgan.

Qonun saylovoldi tashviqoti materiallariga, yetkazilishi majburiy bo‘lgan axborotga va maqsadi tovarni bozorda ilgari surish bo‘lmagan sinov natijalariga nisbatan **tatbiq etilmaydi.**

Qonun normalarini qo‘llashda noaniqliklarga olib kelgan ayrim tushunchalar tuzatilib, yangi tushunchalar bilan to‘ldirilgan. Nomaqbul reklamaga (noto‘g‘ri, axloqsiz, yashirin, Qonun talablariga mos kelmaydigan boshqa reklama) yo‘l qo‘yilmaydi. Rag‘batlantiruvchi

aktsiya – reklamadan foydalanuvchilarni muayyan harakatlarni bajarishga undaydigan tadbir, tanlov, o‘yin o‘tkazish shaklida amalga oshiriladigan, shu jumladan ularda ishtirok etish sharti reklama qilinayotgan tovarlarni olishdan iborat bo‘lgan reklama. Tashkilotchi rag‘batlantiruvchi aktsiyani o‘tkazish boshlanguniga qadar ommaviy axborot vositalarida aktsiya shartlarini e‘lon qilishi shart.

Davlat mulki bo‘lgan yer uchaskalariga, binolarga hamda inshootlarga tashqi reklama konstruktsiyalarini o‘rnatishga bo‘lgan huquq ochiq elektron auksionlar asosida beriladi. Auksion yakunlariga ko‘ra yer uchastkalaridagi reklama joyining pasportini 10 yil muddatga, davlat mulki bo‘lgan obyektlarda 5 yil muddatga beriladi.

Quyidagilar taqiqlanadi:

- reklamada taniqli shaxslar, tibbiyot xodimlari yoki tashqi ko‘rinishi shifokorlarga o‘xshash shaxslarning ishtirok etishi;
- olimlarning, tibbiyot xodimlarining tavsiyalaridan foydalanish;
- fuqarolarning minnaddorchiligi va tavsiyalaridan foydalanish;
- dori vositasi iste‘molidan inson organizmida yuz beradigan o‘zgarishlarni aks ettirish;
- nojo‘ya ta‘sirlar mavjud emasligi, noyob, eng samarali, eng xavfsiz deb taqdim etish;
- boshqa dori vositalari bilan taqqoslash;
- ta‘siri kafolatlanganligini ta‘kidlash;
- dori vositasini iste‘mol qilmaslik inson salomatligi yomonlashishiga olib kelishini ta‘kidlash;
- tibbiy ogohlantirishsiz berish;
- rag‘batlantiruvchi aktsiyalar o‘tkazish.

Tavakkalchilikka asoslangan o‘yinlar reklamasi taqiqlanadi:

qimor o‘yinlari

tavakkalchilikka asoslangan boshqa o‘yinlar.

telekommunikatsiya tarmoqlaridan foydalangan holda tashkil etiladigan qimor o‘yinlari va tavakkalchilikka asoslangan boshqa o‘yinlar.

Lotereyalar reklamasi ularda ishtirok etish voyaga etmaganlar uchun yo‘l qo‘yilmasligi to‘g‘risidagi ogohlantirish bilan birga berilishi kerak.

Javobgarlik.

Reklama to‘g‘risidagi qonunchilikni buzganlik uchun quyidagi miqdorlarda moliyaviy sanksiyalar qo‘llaniladi:

ishlab chiqarilishi, realizatsiya qilinishi yoki reklama qilinishi qonunchilikda taqiqlangan yoki cheklangan mahsulot to‘g‘risida reklama tarqatganlik uchun	bazaviy hisoblash miqdorining 100 baravari miqdorida
nomaqbul reklama berganlik, aksilreklamani berishni rad etganlik uchun	bazaviy hisoblash miqdorining 70 baravari miqdorida
energetik ichimliklar, alkogolli ichimliklar, tamaki mahsulotlarini hamda tamakini va nikotinni iste‘mol qilish moslamalari, pirotexnika vositalari, qurol– yarog‘ reklamasiga doir talablarni buzganlik uchun	bazaviy hisoblash miqdorining 50 baravari miqdorida
tashqi reklama va axborotni joylashtirish tartibini buzganlik uchun.	bazaviy hisoblash miqdorining 50 baravari miqdorida
voyaga etmaganlar uchun mo‘ljallangan reklamaga, dori vositalari, BAD reklamasiga doir talablarni buzganlik uchun.	bazaviy hisoblash miqdorining 30 baravari miqdorida

Moliyaviy sanksiyalarni qo‘llash vakolatli davlat organi (Agentlik) tomonidan amalga oshiriladi.

Nizo mavjud bo‘lgan taqdirda esa, masala sud tartibida hal etiladi.

Moliyaviy sanksiyalarni qo‘llash reklama to‘g‘risidagi qonunchilik buzilishini bartaraf etish majburiyatidan ozod etmaydi.

Zamonaviy dunyoda reklama yetakchi rol o'ynaydi. Mahsulotni targ'ib qilish vositalarisiz, bizning zamonamizning eng mashhur brendlari haqida kam odam biladi. Sanoatning boshqa tarmoqlari kabi reklama ham iqtisodiyot rivojiga hissa qo'shadi, ular faoliyatida yangi mahsulotlar va tegishli xizmatlarni samarali ilgari surishini ta'minlaydi. Reklamalar bugungi kunda hayotimizning ajralmas qismiga aylanib ulgurgan. Ulardan tovarlar xarid qilishda, ish va xizmatlarga buyurtma berishda foydalanamiz.

Yangi tahrirda qabul qilingan 07.06.2022 yildagi O'RQ– 776– son "Reklama to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni mohiyatan demokratik tamoyillarga asoslangan, shuningdek, iste'molchilar huquqlarini har tomonlama himoya qilishni nazarda tutadi hamda, reklama beruvchilar va reklama bozorining professional ishtirokchilari faoliyati uchun eng yaxshi sharoitlar yaratishga yo'naltirilgan.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 07.06.2022 yildagi O'RQ– 776– son
2. <https://lex.uz/docs/6052631>
3. <https://www.reklama-expo.ru/ru/articles/>
4. <http://www.mediascope.ru/2627>
5. <http://www.mediascope.ru/taxonomy/term/12>

**Минавваров Жавохир Киямиддинович,
магистр, 1– курса, группы
МЕКР– 31 факультета «Экономика»**

АНАЛИЗ И ТЕНДЕНЦИИ ОБЕСПЕЧЕНИЯ ПРОДОВОЛЬСТВЕННОЙ БЕЗОПАСНОСТИ

***Аннотация:** в статье рассматриваются анализ и тенденции обеспечения продовольственной безопасности насыщения рынка качественной, безопасной и доступной продовольственной продукцией в Узбекистане.*

***Ключевые слова:** обеспечение, безопасность, продовольствие, анализ, реализация.*

Рыночная трансформация рациональной экономики Узбекистана становится очевидцем отрицательных тенденций в продовольственном производстве, сокращением межрегионального обмена и расширением агрессивного продовольственного импорта, снижающих степень продовольственной безопасности в экономике. Мощное усиление конкурентных преимуществ государственного продовольственного комплекса вследствие некоторого снижения курса национальной валюты – сума, увеличивает условия для создания повышения степени самообеспеченности продовольствием Узбекистана. Это в свою очередь порождает задачу поиска новых эффективных методов урегулирования межрегиональных и экспортных потоков продовольствия, прежде всего, из индустриально– аграрных восточных регионов в другие территории Узбекистана. Получение и достижение продовольственной безопасности и самообеспеченности страны на макроуровне нереально без структурно– продуманной перестройки агропромышленного комплекса (АПК) и формирования продвинутого и современного агропродовольственного рынка.

На сегодняшний день нам необходимо формировать и развивать такие новые направления, как предпринимательство и инновационные процессы, которые способствуют повышению конкурентоспособности продукции отечественных производителей на внутреннем и мировом рынках, а так же решение проблем экономического роста производства и др. Исходя из этого становится очевидной